



MEDALS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: ABOUT THE AWARDEES

Jasurbek Mukhtorjonovich Karimjonov

Associate Professor acting, PhD

National University of Uzbekistan

E-mail: expert0almazniy@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: state award, medal, badge, "Courage", "For faithful services", "Fame", "Creator of the future", "Healthy life", award.

Received: 19.12.25

Accepted: 20.12.25

Published: 21.12.25

Abstract: This scientific article describes the medals, which are of particular importance in rewarding citizens for their services to the state and people in independent Uzbekistan, and the contribution of those awarded these awards to the development of the country's economic, social, and cultural sectors through their legal framework.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MEDALLARI: TAQDIRLANGANLAR HUSUSIDA

Jasurbek Muxtorjonovich Karimjonov

O'zbekiston Milliy universiteti dotsent v.b.

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD

E-mail: expert0almazniy@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: davlat mukofoti, medal, ko'krak nishoni, "Jasorat", "Sodiq xizmatlari uchun", "Shuhrat", "Kelajak bunyodkori", "Sog'lom turmush", taqdirlash.

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Mustaqil O'zbekistonda fuqarolarning davlat va xalq oldidagi xizmatlarini taqdirlashda alohida ahamiyatga ega bo'lgan medallar hususida hamda ushbu mukofot bilan taqdirlanganlarning mamlakat iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalar rivojiga qo'shayotgan hissasi huquqiy asoslari orqali bayon qilingan.

МЕДАЛИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: О НАГРАЖДЕННЫХ

Жасурбек Мухторжонович Каримжонов

Доцент и.о. PhD

Национальный университет Узбекистана

expert0almazniy@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: государственная награда, медаль, знак отличия, «Мужество», «За верную службу», «Слава», «Создатель будущего», «Здоровый образ жизни», награда.

Аннотация: В данной научной статье описываются медали, имеющие особое значение в качестве награды гражданам за заслуги перед государством и народом независимого Узбекистана, а также вклад награжденных этими наградами в развитие экономической, социальной и культурной сфер страны в рамках соответствующего правового поля.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi davlat mukofotlari tizimida medallar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikdan keyingi yillarida mamlakatimizda bir qator medallar ta’sis etilib, ular bilan o‘tgan davrda taqdirlash ishlari amalga oshirilib kelingan. Mustaqillik yillarida “Jasorat”, “Sodiq xizmatlari uchun”, “Shuhrat”, “Kelajak bunyodkori”, “Sog‘lom turmush” kabi medallar ta’sis etilib, ushbu medallar bilan taqdirlash bilan birgalikda bir marttalik pul mukofotlari ham berib kelinmoqda.

Taqdirlanganlarga mukofotlarni topshirish masalalari ham alohida ahamiyatga ega. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 14 yilligi munosabati bilan 748 nafar taqdirlanganlarga mukofotlarni topshirish tadbirlariga ko‘ra, 60 nafar nomzod Oqsaroy qarorgohida, 3 nafar Oliy Majlis Senatida, 6 nafar Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida, 2 nafari Vazirlar Mahkamasida qolgan nomzodlar tegishliligi bo‘yicha viloyatlarda, vazirliklarda, qo‘mitalarda va tashkilotlarda taqdirlanish belgilab o‘tilgan [1].

Tadqiqot usullari. Mazkur ilmiy maqolada xolislik, haqqoniylik, g‘oyaviylik, vatanparvarlik, tarixiylik, statistik qiyosiy tahlil kabi usul hamda metodlardan foydalanilgan. Mustaqillik davriga oid ekanligi hamda ilk bor tadqiq etilayotganligi hisobga olinsa, asosan davriy nashrlar hamda qonunlar to‘plamida mavzuga doir ma’lumotlar qayd etilgan. Xususan, turli yillarda tegishli qonunlar bilan bir qator mukofotlar joriy qilinadi.

Natija va muhokama. Vatanimiz tinchligini asrash yo‘lida mardlik va fidoyilik ko‘rsatgan insonlarni, harbiy xizmatchilarni burchini ado etishda ko‘rsatgan mardlik va jasoratlari uchun “Jasorat” medali bilan taqdirlash muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. 1994-yil 5-mayda “Jasorat” medali ta’sis etilgan[2]. Ushbu medal bilan O‘zbekiston Respublikasi harbiy xizmatchilari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasining va ichki ishlar organlarining xodimlari respublikaning

milliy xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashda, harbiy burchni yoki xizmat burchini ado etish vaqtida ko'rsatgan mardlik va jasoratlari uchun mukofotlanadilar. "Jasorat" medali bilan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari yoki O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar tabiiy ofat, yong'in va boshqa favqulodda holatlar vaqtida jamoat tartibini saqlashda, odamlar hayotini, davlat va jamoat mulkini saqlab qolishda ko'rsatgan jasoratlari uchun mukofotlanishlari mumkin. Mukofotlangan shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining o'n karrasi miqdorida bir yo'la to'lanadigan pul mukofoti oladilar hamda medal ko'krakning chap tomoniga taqiladi[3]. Medal 0,5 mikron qalinlikda nikel ustidan 0,25 mikron qalinlikda tilla qoplangan mis qotishmasidan tayyorlanadi va diametri 34 millimetrli doira shaklida bo'ladi. Medalning havo rang emal bilan qoplangan old tomonida quyosh va taralayotgan nurlar fonida shon-shuhrat va mardlik ramzini ifodalovchi qalqon va qilich tutgan otliq jangchi tasvirlangan. Medalning quyi qismida Jasorat degan yozuv berilgan. Medalning orqa tomonida davlat gerbi tasvirlangan[4]. "Jasorat" medali tasvir muallifi A. Mamajonov. Ushbu medal bilan dastlab 1994-yil ko'p yillik tizimda samarali mehnati uchun Milliy xavfsizlik xizmati raisi G'.Aliyev mukofotlangan. 2007-yil O'zbek professional sportini rivojiga qo'shgan katta hissasi, yosh sportchilarni har tomonlama qo'llab quvvatlayotgani uchun "Yuniversum" kompaniyasi promuteri - Klaus Peter Kol taqdirlanadi. 2021-yilga qadar ushbu medal bilan jami 2036 nafar shaxslar mukofotlangan.

2007-yil 6-iyulda "Sodiq xizmatlari uchun" medali to'g'risidagi qonun qabul qilinadi. "Sodiq xizmatlari uchun" medali bilan yuksak kasbiy mahoratini, harbiy va vatanparvarlik burchiga sadoqatini namoyon etgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mamlakatning mudofaa qobiliyati hamda milliy xavfsizligini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining jangovar shayligini oshirish va O'zbekistonda huquq-tartibotni ta'minlash ishidagi katta xizmatlari uchun mukofotlanadilar va ayrim hollarda O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham mukofotlanishi hamda bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida bir yo'la to'lanadigan pul mukofoti oladilar. Medal ko'krakning chap tomoniga taqilib, 0,25 mikron qalinlikda oltin qoplangan mis qotishmasidan tayyorlanadi va diametri 34 millimetrli doira ko'rinishida bo'ladi. Medalning old tomonida doirada sakkiz qirrali yulduz fonida harbiy xizmatchining tasviri joylashgan. Medalning yuqori qismida aylana bo'ylab Sodiq xizmatlari uchun so'zlari yozilgan. Medalning pastki qismida sakkiz qirrali yulduz va aylana bo'ylab dafna barglari tasvirlangan. Medalning orqa tomonida davlat gerbi tasvirlangan, pastki qismida medalning raqami yozilgan[5]. Ushbu medal bilan ilk bor 2007-yil 25 nafar huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari mukofotlangan[6]. 2021-yilga qadar jami 816 shaxslar mukofotlangan.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil qonun bilan Kelajak bunyodkori medali ta'sis etilgan. Ushbu medal bilan vatanparvarlik, fidoyilik va mehnatsevarlik fazilatlarini namoyon etib,

xalq manfaatlari uchun sadoqat bilan xizmat qilayotgan, Vatanimizning xalqaro maydondagi obro‘-e‘tiborini yuksaltirishga va shon-shuhratini oshirishga munosib hissa qo‘shayotgan, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o‘rnak bo‘layotgan, shuningdek o‘qishda va mehnat faoliyatida katta yutuqlarga erishgan 14 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari mukofotlanadi hamda bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida bir yo‘la to‘lanadigan pul mukofoti oladi. Medal ko‘krakning chap tomoniga taqilib, uning tuzilishi 0,5 mikron qalinlikdagi nikel, keyin esa 0,25 mikron qalinlikdagi oltin bilan qoplangan mis qotishmasidan tayyorlanadi va doira shaklida bo‘ladi. Medalning old tomonida, markazda, oq fonda zamonaviy fan-texnika taraqqiyoti timsoli bo‘lgan tinchlik atomining ramziy tasviri, yer shari, uning meridianlari va parallellari, O‘zbekiston Respublikasining xaritasi, shuningdek tayanch ramzi bo‘lgan ikki kaft tasviri joylashgan. Medalning yuqori qismida aylana bo‘ylab Kelajak bunyodkori degan so‘zlar yozilgan. Medalning pastki qismida aylana bo‘ylab ikkita zaytun novdasi joylashgan, ularning tutashgan markazida yarimoy va yulduzni o‘z ichiga olgan, chetlari zarhal hoshiya bilan o‘ralgan ko‘k rangli musamman tasvirlangan. Medalning orqa tomonida davlat gerbi tasvirlangan bo‘lib, uning pastki qismida medal raqami yozilgan[7]. Ushbu medal bilan ilk bor 2021-yil 9 nafar xotin-qizlar mukofotlangan[8]. Ushbu medal bilan 2021-yilda 19 nafar shaxslar mukofotlangan.

Respublikamizda mavjud medallar ichida eng ko‘p taqdirlanish amalga oshirilganligi bilan ajralib turadigani bu Shuhrat medali hisoblanadi. Ushbu medal bilan respublika iqtisodiyoti, fani va madaniyatini rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik hamda milliy istiqloq va ijtimoiy taraqqiyot g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash ishida o‘zining halol mehnati bilan katta yutuqlarga erishgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari hamda O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lmagan shaxslar mukofotlanadilar hamda bazaviy hisoblash miqdorining besh baravari miqdorida bir yo‘la to‘lanadigan pul mukofoti oladilar. Medal ko‘krakning chap tomoniga taqiladi[9]. U dastlab 0,5 mikron qalinlikda nikel, keyin esa 0,25 mikron qalinlikda tilla qotishma qoplangan mis qotishmasidan tayyorlanib doira shakliga ega bo‘ladi. Medalning old tomonida ko‘tarilib kelayotgan quyosh nurlari ichida O‘zbekiston iqtisodiy qudratining ramzi bo‘lgan manzara tasvirlangan. Uning quyi qismida Shuhrat degan yozuv, orqa tomonida davlat gerbi tasvirlangan. Pastki qismida medalning raqami yozilgan bo‘lib to‘g‘nog‘ich bilan taqiladi[10]. “Shuhrat” medali tasvir muallifi A. Mamajonov. Medal ta‘sis etilganidan 2021-yilgacha 8582 nafar shaxslar taqdirlangan. Jumladan, ushbu medal bilan birinchilardan bo‘lib 1994-yil Navoiy kon metallurgiya kombinati 3 nafar xodimi[11], fransiyalik mashhur olim, Temur va Temuriylar tarixining zukko bilimdoni O‘zbekiston va Fransiya jamiyatlarini o‘zaro yaqinlashtirish ishining jonkuyari Lyusen Keren taqdirlangan[12]. 1996-yil Asakadagi “O‘zDEU” qo‘shma korxonasi qurilishida ulkan yutuqlari uchun DEU Prezidenti va “O‘zDEU”

kompaniyasining raisi LI Kvan Ki mukofotlangan[13]. 2006-yil Paxtakor futbol jamoasi tashkil etilganligining 50 yilligi munosabati bilan O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishda alohida o‘rnak ko‘rsatgan sportchi va murabbiylardan 20 nafari mukofotlangan, ulardan 12 nafari marhum sportchilar (R.Agishev, An Mixail, O.Ashirov, S.Bazarov, K.Bakanov, Sh.Ishbutayev, G.Krasnitskiy, X.Raxmatullayev, V.Sabirov, I.Tazitdinov, M.Talibdjanov, V.Fyodorov) hisoblanadi. 2007-yilda Muhammad Xamam Al-Abdulla-Osiyo futbol konfederatsiyasi Prezidenti, mamlakatimiz ravnaqi yo‘lida halol mehnat qilgan, o‘git-nasihatlar bilan yoshlar tarbiyasiga o‘zining katta hissasini qo‘shib kelayotgan yuz yoshdan oshgan 14 nafar otaxon-onaxonlar har bir hududiy birlikdan bir nafar taqdirlanadi.

2020-yil 26-mayda “Sog‘lom turmush” medali to‘g‘risidagi qonun qabul qilingan. Ushbu medal bilan sog‘liqni saqlash muassasalari shifokorlari, sog‘lom turmush tarzini yorituvchi ommaviy axborot vositalari vakillari, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishga qo‘shgan salmoqli hissasi uchun sport maktablari, umumta‘lim maktablari va maktabgacha ta‘lim muassasalarining rahbarlari, sport trenerlari, sport musobaqalari orqali yoshlarda vatanparvarlik, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini yuksaltirish borasidagi ulkan xizmatlari uchun mudofaa tizimi vakillari, hokimlar va ularning o‘rinbosarlari, jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari rahbarlari, homiylar, sport federatsiya (uyushma)lariga birlashtirilgan korxonalar va tashkilotlar rahbarlari mukofotlanadilar.

Medal bilan mukofotlangan shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdoridagi bir martalik pul mukofoti oladilar hamda u ko‘krakning chap tomoniga taqiladi. Medal 0,25 mikron qalinlikda oltin qoplangan mis qotishmasidan tayyorlanadi va diametri 34 millimetrli doira shaklida bo‘ladi. Medalning old tomoni quyi qismida O‘zbekiston Respublikasining xaritasi aks ettirilgan yer shari, uning yuqori qismida esa ko‘tarilayotgan quyosh nurlari fonida sog‘lom oilaning ramziy tasviri joylashgan. Medalning aylanasi bo‘ylab Sog‘lom turmush yozuvi, quyi qismida esa sakkiz qirrali yulduzga tutashgan ikkita dafna novdasi joylashgan. Medalning orqa tomonida davlat gerbi tasvirlangan va quyi qismida medal raqami tushirilgan. Medalning qalinligi 3 millimetr bo‘lib, old va orqa tomonlarining chetlari qabariq doira bilan o‘ralgan. Medal oq rangli chiziqlar bilan hoshiyalangan yashil rangdagi shoyi lenta qoplangan besh qirrali qadag‘ichga ilmoqcha va halqa yordamida ulanadi. Lentaning eni 24 millimetr, oq rangli hoshiyalarning eni 1 millimetr. Qadag‘ichning orqa tomonida medalni kiyimga taqib qo‘yish uchun to‘g‘nog‘ich ko‘rinishidagi moslama mavjud[14]. Ilk bor ushbu medal bilan 2021-yil 4-martdagi farmon bilan 4 nafar xotin-qizlar mukofotlangan[15]. Ushbu medal bilan 2021-yilda 11 nafar shaxslar mukofotlangan.

Xulosa. Aytish kerakki, mustaqillikdan keyingi yillarida mamlakatimizda bir qator medallar ta‘sis etilib, hozirgi kunga qadar taqdirlash ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Boshqa

mukofotlaridan farqli ravishda medallar soni kamligi bilan ajralib turadi. Medallar tashqi ko‘rinish jihatdan o‘xshash bo‘lib, medal markazidagi tasvirlar orqali farqlanib, har bir medal nomidan kelib chiqqan holda turli kompazitsiyalardan foydalanilgan. Bundan tashqari turli sanalarga bag‘ishlab yubiley medallari ham ta’ sis etilganligini aytib o‘tish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zMA M-38-fond, 1-ro‘yxat, 344- yig‘majild. 64-varaq.
2. O‘zbekiston ovozi. 85-son. 1994. – B. 1.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994. 5-son. – Б. 19.
4. O‘zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlari. Qonun hujjatlari. /Tuzuvchi: Sh.N.Ro‘zinazarov. – Toshkent: Adolat, 2001. – B. 85.
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007. 6-son. – B. 27-29.
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007. 8-son. – B. 100-102.
7. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017. 12-son. – B. 17-19.
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2021. 3-son. – B. 114-115.
9. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994. 5-son. – Б. 20-21.
10. O‘zbekiston Respublikasining Davlat mukofotlari. Qonun hujjatlari. /Tuzuvchi: Sh.N.Ro‘zinazarov. – Toshkent: Adolat, 2001. – B. 92.
11. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994. 7-son. – Б. 7.
12. Tojiboyev M.T. O‘zbekiston mustaqilligi sharoitida milliy ma’naviy qadryatlarning tiklanishi va rivojlanishi. Tarix fan. nom. diss... – Toshkent, 2001. – B. 78.
13. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996. 7-son. – B. 3.
14. Mukhtorjonovich, K. J. (2021). Creation of the legal basis of state awards in independent Uzbekistan. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2031-2037.
15. Muxtorjonovich, K. J. (2021). O‘zbekiston respublikasi ordenlarining tavsifi. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(4), 536-543.